

AZA ETNOGRAFIZMLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Nurmatova Sharofat Azizaliyevna
Sherobod tumani 1-maktabning oliy toifali
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

O'zbek tilshunosligida leksikologiya sohasida bir qator ilmiy ishlar, izlanishlar amalga oshirilgan va bu ishlar tilshunosligimizning boy ilmiy xazinasini hisoblanadi. Leksik sathimizda faqatgina o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy madaniyatni, o'ziga xos mentalitetni ifodalaydigan so'zlar bor bo'lib, ularni ilmiy terminlar doirasida "Etnografizmlar" deb ataymiz.

"Etnografizm"lar atamasining tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu so'zning o'zagi xalqlarning kelib chiqishi, paydo bo'lishi va shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan ilk jarayonlarni o'rganuvchi soha atamasi, ya'ni "Etnografiya" so'zidir. Demakki, etnografizmlar ushbu soha bilan uzviy aloqadorlikda va biri ikkinchisini to'ldirgan holatda o'rganiladi.⁴

Til vositasida ajdoddan avlodga o'tadigan marosim va an'analarning ayrimlarini ko'rib chiqaylik. Masalan, inson tug'ilishi bilan unga ism qo'yish, qulog'iga azon aytish, sochini olish, chilla saqlash, alla aytish, beshikka solish kabi marosim va udumlar ham til vositasida ajdoddan avlodga o'tib, asrlar davomida o'zbek xalqining o'ziga xos etnografizmlari sifatida yashab kelmoqda. Inson hayotining ibtidosi tug'ilish bo'lsa, o'lim uning intihosi hisoblanadi. Inson tug'ilishi bilan diniy marosim tarzida uning o'ng qulog'iga Azon aytiladi. Bu o'zbek xalqi turmush tarzida Islom dini bilan uzviy bog'liq marosim sifatida namoyon bo'ladi. Inson bolasi tug'ilib, yoshini yashab, vafot etganidan so'ng, yaqinlari tomonidan tegishli aza marosimlari o'tkazilib, uni so'nggi manzilga kuzatishadi. Jumladan, dastlab mahram suvga olish, yig'i- yo'qlov aytish, yuvib kafanlash va Janoza namozi o'qish, qabrga qo'yish, aza tutish kabi marosim va rituallar bajariladi.


Aza o'ziga xos marosim bo'lib, marhumning yaqin kishilari tomonidan aza liboslari kiyilib, ma'lum muddat (7 kun, 40 kun, 5 oy, 7 oy, 9 oy yoki 1 yil) davomida aza tutish bilan namoyon bo'ladi. Ayollar azador ekanligini ko'k, oq yoki qora rangli liboslar va ro'molar kiyib bildirishsa, erkaklar sochlarini oldirib tashlash orqali azadorliklarini ko'rsatishadi. Aza – marhumning xotiri uchun uning eng yaqin ayol va erkak qarindosh-urug'lari tomonidan bajariladigan motam, qayg'u marosimlari.⁵ Aza leksemasida "qayg'u, yaqin kishisini yo'qotganligi uchun chuqur istirob chekish" semalari mavjud. Azali (azador)- Marhumning xotiri uchun azalik kiyimidagi kishi. Azali kishining ust-boshi ko'k yoki qora rangdagi matodan bo'lgan yoki boshiga oq matodan ro'mol

⁴ Sobira Rustam qizi Gulmuradovna. O'zbek tilshunosligida etnografizmlarga oid ayrim tadqiqotlar xususida. Academic research in educational sciences. Volume 2/ ISSUE 3/2021. 452-B.

⁵ N. Mirzayev. O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati. T. "Fan" nashriyoti. 1991.

bog'lagan.⁶ Azaburon (a+f-t) yoki Aza ochdi (a+o`) leksemalari marhumning xotiri uchun kiyilgan azalik kiyimlarni tashlash marosimi. Marhumning xotiri uchun azalik kiyimlarni kiygan uning ayol qarindosh-urug'lari tomonidan dafn marosimidan keyin qirq kun, olti oy va yil o'tgach ijro etiladi. Bunda, albatta, marhumning yoshi hisobga olinadi.⁷ Aza tutish- dafn marosimidan so'ng uchinchi kuni marhumning xotiri uchun uning xotin-qiz qarindosh-urug'lari tomonidan aza tutish. Bunday aza tutishda marhumga yaqinligi, yoshi hisobga olingan. Shunga ko'ra, ba'zilar qora yopki ko'k matodan ust-bosh kiygan, ba'zilar oq matodan boshiga ro'mol bog'lagan. Aza tutish muddati ham shunga qarab belgilangan.⁸ Janoza- dafn qilish, marhumni ko'mish oldidan o'tkaziladigan marosim⁹. Bu leksemalarda "yaqin kishisidan ajralganlik, yaqin kishisinin yo'qotganlik va bunda qayg'uga botganlik", "Yaqin kishisini tuproqqa topshirganlik" kabi ma'nolar mavjud.

Aza marosimi va unga xos tushunchalarni leksik-semantik va lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilish lozim. Bu borada ayrim ilmiy izlanishlar mavjud bo'lsa-da, bu masala yurtimiz miqyosida va o'zbek xalqi hamda boshqa xalqlar mentalitetidagi motam-aza bilan bog'liq marosimlarni qiyosiy-chog'ishtirish orqali tadqiq qilishni talab etadigan mavzulardan biridir. Chunki aza bilan bog'liq tushunchalardan biri bo'lgan "qabr" leksemasi (tushunchasi) yurtimizning turli hududlarida turlicha ataladi (lahad, go'r kabi) va har xil shaklda tayyorlanadi.



⁶ N. Mirzayev. O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati. T. "Fan" nashriyoti. 1991

⁷ N. Mirzayev. O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati. T. "Fan" nashriyoti. 1991

⁸ N. Mirzayev. O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati. T. "Fan" nashriyoti. 1991

⁹ N. Mirzayev. O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati. T. "Fan" nashriyoti. 1991

